

GORMONLAR BIOKIMYOSI

Toshpo'latov To'lqin Aliyarovich, Yuldashev Husniddin Eshnazarovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali "Tibbiy va Biologik kimyo" Kafedrasи Biologik kimyo fani assistenti

Salaev Otamurod Bahodir o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son Davolash fakulteti 2 kurs talabasi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar:

Gormon, kartizol, biokimyoviy xususiyatlari, Gipotalamus garmonlari biokimyosi, gipofiz garmonlari biokimyosi, enzokrin sistemaning biokimyoviy faoliyati, jinsiy garmonlar biokimyosi.

Annotation

Hozirgi zamonda garmonlarni bilish juda muhimdir. Garmochning biologik va fiziologik xususiyatlari bilan birga "biokimyoviy" jarayonlarini va "biokimyoviy" tarkibini ham bilish kerak. Garmonlarni biokimyosini bilmaslik hozirgi kelib chiqayotgan kasaliklarga aniq tashxis qo'yishga, kasalikni davolashga, kasalikni oldini olishga to'sqinlik qiladi. Gormonlardan kelib chiqadigan kasaliklarni juda xavfli kasaliklar safiga qo'shsak bo'ladi. Chunki garmonlar regulatsiya ya'ni boshqaruv vazifasini bajaradi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2022 LWAB.

Kirish: Bugungni kunda garmonlarning inson organizmi uchun juda zarur. Klinik laboratoriylar gormonlarni nisbatan oson tahlil qilishlari mumkin. Avtomatlashtirilgan immunoassay platformalaridan foydalananib, ko'pchilik gormonlarni aniqlik bilan aniqlash mumkin. Ba'zi hollarda, masalan, siydiksiz kortizol, eng ishonchli sinovlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi va massa spektrometriyasidir. Kamdan kam hollarda, erkin gormonlarni tahlil qilish uchun jel xromatografiyasi va muvozanat dializ kabi usullar talab qilinishi mumkin. Biroq, klinik laboratoriylar yoki mos yozuvlar laboratoriylari ko'pchilik gormonlarni ishonchli tarzda o'lchashi mumkin. Jinsiy garmonlarning ham o'rni katta. Jinsiy garmonlarning ikkita asosiy toifasi androgenlar va estrogenlar bo'lib, ulardan eng muhim inson hosilalari mos ravishda testosterone va estradioldir. Progestogen jinsiy steroidlarning uchinchi sinfi deb ataladi. Progesteron eng muhim va faqat tabiiy ravishda paydo bo'lgan inson progesteronidir. Androgenlar erkak jinsiy gormonlari deyiladi, chunki ular erkaklashtiruvchi ta'sirga ega, boshqa tomonidan estrogenlar va progestogenlar ayol jinsiy gormonlari deb ataladi. E'tibor bering, garchi barcha turdag'i gormonlar har bir jinsda mavjud bo'lsa-da, lekin juda farqli darajada, masalan, erkaklarda estrogenlar va progestogenlar juda oz miqdorda bo'lgani kabi, ayollarda ham androgenlar juda oz miqdorda bo'ladi. Sintetik jinsiy gormonlar: Fan va texnologiya rivojlanishi bilan ko'plab turli xil sintetik jinsiy steroidlar ishlab chiqildi.

Asosiy qism: Endokrin gormonlar tasnifi. Kimyoviy tabiatiga ko'ra gormonlar 3 guruhga: peptidli, steroidli va aminokislota hosilasi bo'lgan gormonlarga bo'linadi. Parakrin gormonlar esa nisbatan turlituman bo'ladi. Barcha gormonlarning birinchi ta'sir bo'g'ini retseptorlar bilan bog'lanishidir, har bir gormonning o'z retseptori bo'ladi. Bu jarayon qaytar, gormon bilan bog'langan retseptorlar miqdori

gormonning qondagi miqdoriga to‘g‘ri proporsional bo ladi. Signalni uzatish mexanizmiga ko‘ra gormonlar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh gormonlari peptid gormonlar va adrenalin. Ulaming retseptorlari plazmatik membrana tashqi yuzasida joylashgan va bu gormonlar hujayra ichiga o‘tmaydi. Bu gormonlar signalni hujayra ichiga uzatadi. Hujayra ichidagi vazifasini AMF, GMF, inozitoltrifosfat, Ca²⁺ ionlari bajaradi. Gormon retseptor bilan bog‘langach, “shalola” mexanizmi orqali hujayra metabolizmi o‘zgaradi (masalan, glikogen parchalana boshlaydi va hokazo). Ikkinci guruh gormonlariga steroid gormonlar va tiroksin kiradi. Ulaming retseptorlari sitozolda joylashgan. Gormon hujayra sitoplazmasiga kirib, retseptor bilan bog‘ lanib yadroga boradi yoki avval yadroga borib, o‘sha yerda retseptor bilan bog‘lanadi. Hujayra membranasida joylashgan retseptorlarga ta’sir qiluvchi ayrim peptid gormonlar (insulin, o‘sish gormoni va b.) va barcha sitokinlarning signali ham yadroga uzatilishi mumkin. Signalning bunday o‘tkazilish mexanizmlaridan biri proteinkinazalarning Yanus-kinaza (JAK) deb ataluvchi alohida bir oilasi yordamida amalga oshiriladi (qadimgi rimliklaming ikki yuzli xudosi Yanus nomidan olingan, chunki bu fermentning ikki aktiv markazi bor). Gormon retseptor bilan bog‘langanda, retseptoring sitoplazmatik qismi JAK bilan bog‘lanadi, bunda JAK aktivlanib ham retseptoring, ham o‘z molekulasining ma’lum bir tirozin qoldiqlarini fosforillaydi. Buning natijasida retseptor-JAK kompleksining sitozoldagi boshqa molekulalar — signal o‘tkazuvchilar va transkripsiya aktivatorlari (PSAT) (STAT — signal transducers and activators of transcription —angl.) bilan bog‘ lanish xususiyati oshadi. JAK PSATni fosforillaydi, natijada PSAT dimerlanadi, dimer yadro membranasidan o‘ta oladi, yadroda dimer ba’zi bir genlaming enxanserlari bilan bog‘ lanib, bu genlarning transkripsiyasini stimullaydi. Agar retseptor shaxsiy tirozinkinaza aktivligiga ega bo‘lsa (masalan, insulin retseptori) signal yadroga JAK ishtirokisiz o‘tkazilishi mumkin. Qonda gormonlar konsentratsiyasi 10^6 — 10^{11} mol/l atrofida bo‘ladi. Qonda ulaming yarim yashash davri minutlarda, ayrimlari uchun soatlarda o‘lchanadi. Qonda gormon konsentratsiyasining ko‘payishi stimul omil tasirida gormon sintezlanish tezligining oshishi yoki endokrin hujayra ichida tayyor mavjud bo‘lgan gormon sekretsiyasining kuchayishi bilan bog‘ liq. Steroid gormonlar lipofil moddalar bo‘lib, hujayra membranasidan oson o‘ta oladi. Peptid gormonlar maxsus mexanizmlar yordamida qonga sekretsiya qilinadi. Gormonlar signalni qon oqimi bo‘ylab sintez joyidan nishon to‘qimaga yetkazadi. Bu endokrin ta’sir hisoblanadi (masalan, insulin). To‘qima gormonlarining nishon to‘qimasi o‘zining yaqinida joylashgan bo‘lib, lokal ta’sirga ega va bunday ta’sir parakrin ta’sir deb ataladi (masalan, oshqozon ichak trakti gormonlari). Agar signal moddalar sintezlangan joyining o‘ziga ta’sir qilsa, autokrin ta’sir deb ataladi (masalan, prostaglandinlar). Insulin ham endokrin, ham parakrin ta’sir qiladi. Ko‘pchilik gormonlar shu yo‘l bilan ta’sir qiladi. Insulin endokrin ta’siriga ko‘ra uglevod va yog‘lar almashinuvini boshqaradi. Insulin parakrin ta’siriga ko‘ra oshqozon osti bezi Langerhans orolchalari a-hujayralari tomonidan glyukagon sintezlanishi va sekretsiyasini ingibirlaydi. Sitokinlar parakrin va autokrin ta’sir etuvchi signal molekulalardir. Qonda ulaming fiziologik aktiv konsenti atsiyasi aniqlanmaydi (interleykin-1 dan tashqari). Sitokinlarning o‘nlab turlari ma’lum. Ularga interleykinlar (limfokin va monokinlar), interferonlar, peptid tabiatli o‘sish omillari, koloniyastimullovchi omillar kiradi. Sitokinlar glikoproteinlar bo‘lib, o‘zida 100 – 200 ta aminokislotani tutadi. Ko‘pchilik sitokinlar virusli infeksiyalari metabolik buzilishlar, mexanik shikastlanishlar va boshqalar ta’sirida ko‘plab turli hujayralarda hosil bo‘ladi. Interleykinlar (IL-II a va ILII p) bundan mustasno bo‘lib, ulaming sintezi maxsus signallar bilan regniyatsiya qilinadi va ayrim hujayra turlaridagina kuzatiladi. Gipofizda nishon to‘qimalaridagi biokimyoviy va fiziologik jarayonlarga stimullovchi ta’sir ko‘rsatuvchi bir qator biologic faol oqsil va peptid gormonlar sintezlanadi. Sintez joyiga ko‘ra gipofizning oldingi, o‘rta va orqa bo‘lagi gormonlari farqlanadi. Oldingi bo‘Takda asosiy oqsil va polipeptid gormonlar sintezlanadi va ular trop gormonlar deb atalib, boshqa endokrin bezlar ishini boshqaradi. Masalan, gipofizdan ajraluvchi qalqonsimon bez ishini boshqaruvchi gormon tirotropin deb ataladi. So‘nggi yillarda hayvonlar miya to‘qimasidan xulq-atvomi belgilovchi neyropeptid deb ataluvchi 50 dan ortiq peptidlar ajratib olindi. Bu peptidlar hulq-atvorga, esda saqlash va o‘rganish jarayonlariga ta’sir qiladi, uyquni nazorat qiladi, og‘riqni pasaytiradi. Jinsiy gormonlar erkak va ayollarning asosan jinsiy bezlarida sintezlanadi (erkaklarda urug‘donlarda, ayollarda tuxumdonlarda), ma’lum miqdorda homila yo‘ldoshi

va buyrak usti bezi po'stloq qismida ham hosil bodadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, erkak jinsiy bezlarida kam miqdorda ayollik gormonlari, yoki aksincha, tuxumdonda esa oz miqdorda erkaklik gormonlari hosil bo'ladi. Ba'zi bir patologik holatlarda organizmda sintezlanayotgan ayollik va erkaklik gormonlari nisbatining bemor jinsiga mos bo'lmasagan tarzda o'zgarishini kuzatish mumkin.

Xulosa: Biokimyo tirik organizmlar hujayralardagi kimyoviy jarayonlarni o'r ganuvchi fani hisoblanadi. Biokimyo qonunlari barcha tirik organizmlar va jarayonlarni boshqaradi. Ma'lumotning biokimyoviy signal orqali o'tkazilishi va kimyoviy energiyaning metabolizm hamda boshqa biokimyoviy jarayonlar orqali boshqarilishi va bir necha boshqa faktorlar bu ilmnning murakkablik darajasini ko'rsatkichidir. Biokimyo, biologik kimyo — tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi va ularda sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar haqidagi fan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A. Sobirova, O.A. Abrorov, F.X. Inoyatova, A.N. Aripov, «Biologik kimyo». «Yangi asr avlodii», 2006 yil
2. Nikolayev A.Ya Biologik kimyo
3. Severina E.S Biokimyo
4. <https://studfile.net/preview/2483944/page:4/>
5. <https://moluch.ru/archive/352/78210/>